



METHODS OF FORMATION OF VISUAL ACTIVITY IN CHILDREN

Khusanova Mukhayyo
ADPI Level 2 Master

Annotation:

This article focuses on the formation of thinking skills, sensibility, and creative imagination of children.

Keywords: visual activity, observation method, application, imagination, art, sculpture, clay making.

Tasviriylar faoliyat bu- go`zallikdan nafosatdan dars beradigan estetik tarbiyaning mактабгача yoshdagи bolalar ta`lim-tarbiyasidagi ilk bosqichidir. Zero uni “ badiiy tarbiya tushunchasi” deb qarash ham mumkin. Bunda ,albatta, o`zbek xalqi o`tmishiga boy ,milliy ,madaniy merosiga ,badiiy boyliklariga nisbatan qiziqish,badiiy idrok ,hurmat, qadr tuyg`ulari ilk kurtaklarini yoyadi. Bolalarda tasviriylar faoliyatini shakllantirish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriylar faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushslash va qog`oz ustida ishslashga o`rganadi. Qalam bilan to`g`ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog`oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta -sekin murakkablashadi. Bu vaqtda bola qog`oz ustiga tushirilgan turli xil izlarni ko`rib xursand bo`ladi. Shuning uchun bu davr «Ala - buji» davr deyiladi. Bu davr bolada tasviriylar faoliyatini vujudga keltirishga ta`sir ko`rsatadi. Bu guruhda maktabgacha ta`lim-tarbiya dasturi guruh mashg`ulotlarni talab qilmasa-da, agar bolalar xohlashsa, ularni stol atrofiga o`tirib rasm chizdirishga imkon yaratish mumkin. . Bolalarni ijodiy maqsad qo`yishga o`rgatiladi. Bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini bayramlarda , ekskursiya va sayrlarda, har xil o`yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o`zlarining badiiy ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondashishi lozim. Shu orqali u bolalarning o`ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarni o`rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga havas juda erta ertal uyg`onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo`lishini aniqlash huquqini bermaydi. Bolalarga rasm ishslash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o`rgatish g`oyasi birinchilardan bo`lib Iitaliyalik san`atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo`llab -quvvatlangan bo`lib, ularsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyalari darajasida qolishi mumkinligini ta`kidlagan. Filadelfiyadagi badiiy





ishlab chiqarish matabining direktori, akademik Liberti Tedd qo'lning chaqqonligi, uning harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida qaragan. Uning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish, ko'pgina faoliyat turlaridan asqotadigan rassomlik mahoratini rivojlantirish uchun zarur. Qum bilan rasm chizish so'nggi o'n yillikning zamonaviy sevimli mashg'ulotlarida biri bo'lib kelmoqda. Bu san'at orqali bolalarda ijodiy faoliyat shakllanmoqda. Qum bilan ishlagan bolalarda qo'l motorikasi faol rivojlanadi, bu esa o'z navbatida nutqni shakllantirishga va mavjud nuqsonlarni bartaraf etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar rivojlangani sari tasviriy faoliyat mashg'ulotlariga qiziqa boshlaydilar, san'at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish, matabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Bunda tasviriy faoliyatni shakllantirishning o`ziga xos,bolalar uchun foydali va qiziqarli bo`la oladigan metodlar asosida tashkil etiladi.

Kuzatish metodi- bu metod bolalar uchun dastlab anglashni oson shakllantiradigan metod bo`lib, bola atrof-muhit, gullar,daraxtlar,osmon, jonli va jonsiz buyumlar haqida tasavvurlariga keltirish uchun ular bilan jonli aloqa o`rnatishadi. .Kuzatish metodi asosida bolalar loydan o`yinchoqlar,daraxt barglaridan applikatsiyalar yasashadi.

Bolalar uchun tasviriy faoliyat turlariga rasm chizish,loydan buyumlar yasash va applikatsiyalar kiradi. Bu tasviriy faoliyatlarning vazifasi tevarak olamni obrazli qilib tarbiyalashdir.Bunday faoliyat matab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.Y.B.Babanskiy tasviriy faoliyatning bolalar uchun ko`rgazmali,og`zaki, amaliy , induktiv va deduktiv ,reproduktiv va muammoli – izlanuvchan hamda mustaqil ish kabi metodlarni aytib o`tadi.**Ko`rgazmali metod** va o`rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan,namunadan, boshqa ko`rgazmali qo`llanmalardan foydalanish ,alohida predmetlarni ko`rib chiqish,tarbiyachi tomonidan tasviriy usullarini ko`rsatib berish ,bolalarning bajargan ishlarini mashg`ulot yakunida ko`rsatish ,ularni baholash kiradi.

Bolalarning kuzatishlari qisqa muddatli bo`ladi.Bolalar o`ta qiziquvchan bo`lgani sababli **rasmlardan foydalanish metodi** kuzatuv asosida hozil bo`lgan tasvirni qayta idrok qilishga yordam beradi.Masalan ,tarbiyachi bolalarga uzoqlashgan predmetni tushuntirish uchun rasmlarni ko`rsatishadi.2 yoshdagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar.Lekin rasmlardagi qahramonlarning o`rtasidagi bog`liqlikni,ya`ni harakatlarni tushunish 4-5 yoshlarda paydo bo`ladi.Masalan ,2 yoshli bolalar rasmdagi barcha daraxtlarni “daraxt “ deb tasavvur



qilishadi,lekin 4- 5 yoshlarda “olma daraxti”, “terak”, “ o`rik” deb aniq tafakkur qilishadi.

Yana bir bolalar tasviri faoliyatini rivojlantiruvchi metodlardan biri **og`zaki metod** hisoblanadi.Tasviri faoliyatda tarbiyachining mashg` ulotdagi doimo bolalar bilan suhbatidan boshlanadi.Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga solish va mashg` ulotga bo`lgan qiziqishini uyg` otishdir.Bolalar o`z tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashg` ulotlarda suhbatning roli kattadir.

Suhbat bolalarda qisqa,mazmunli va his-hayajonli ,odob bilan tashkil etilishi kerak.**Suhbat metodini** o`rgatish 4-7 yoshli bolalar bilan ishlashda muhim o`rin tutadigan metod hisoblanadi.Bolalarning tasavvurlari va emotsiyasi tez paydo bo`lib, ijodiy kayfiyatları tez yo`qolib qolmasligi uchun suhbat metodi sifatdida ham ,usul sifatida ham 3-5 daqiqa davom etishi kerak.

Applikatsiya metodi- tasviri faoliyat turlaridan bo`lgan qirqib yopishtirish kichik guruhdan boshlab o`rgatiladi.Bu metodning asosiy maqsadi bolalarni rang,shakl bilan tanishtirish ,mo`yqalam ,yelimdan to`g`ri foydalanishga o`rgatish, texnik masalalarni shakllantirishdan iborat.Bunda bolalar diqqat,sezgirlik ,sabr kabi fazilatlarini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda ,bolalar tarbiyasi uchun qo`llangan har bir metod kelajak uchun tashlangan qadamlardan hisoblanadi.Yoshlikdan tasviri faoliyatga bolalar ongini singdirish hayotni sevishga ,vatanga muhabbat ,ota-onaga hurmat kabi insoniy fazilatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova.P. “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi”. T.O`qituvchi,1993.
2. Qodirova .F. va boshqalar.”Maktabgacha pedagogika “.T., Ma`naviyat,2013.
3. Qodirova, B. "Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals." Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems 12.6 (2020): 1125-1129.
4. Kadirova, Zulayxo. "INTERNATIONAL LABOR MIGRATION PORECESSES IN UZBEKISTAN." Вісник Національної академії керівних кадрів культури і мистецтв 3 (2018).
5. Kadyrova, B. "The Concept of Historical Consciousness and its Interaction with Social Intelligence." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 8: 189-194.



WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL

SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 1, Jan., 2023

6. Турғуновна, Қодирова Бузулайхо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
7. Turgunovna, Kodirova Buzuloikho. "Gaming technologies to improve the efficiency of the educational process." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 837-839.
8. Турғуновна, Қодирова Бузулайхо, and Айнур Мархабаевна Бекжанова. "Бадий асарлар воситасида бошланғич синф үқувчиларида тарихий онгни шакллантириш методикаси." Образование 8.9 (2022): 10.
9. Кодирова, Бузулайхо Турғуновна. "ФОРМИРОВАНИЕ ВОСПРИЯТИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ." EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY. 2020.
10. Kadirova, B. "PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS." harmony 3: 12.
11. Кодирова, Бузулайхо Турғуновна. "Специфика работы над художественно-историческим произведением в начальной школе." Вопросы науки и образования 7 (19) (2018): 213-215.
12. Кодирова, Бузулайхо Турғуновна. "Методологические основы формирования текстовой деятельности учащихся в процессе постижения художественного произведения." Научные исследования 6 (26) (2018): 78-80.



Website:

<https://wos.academiascience.org>

723